

**O‘ZBEK VA G‘ARB BOLALAR ERTAKLARIDA IJOBIY
QAHRAMON MODEL: “ZUMRAD VA QIMMAT” VA
“SINDRELLA” QIYOSIDA**

Raximova Shodiyaxon Ulug‘bek qizi,
*University of Business and Science
Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi
1-bosqich magistranti*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek va g‘arb bolalar adabiyotida ijobiy qahramon obrazining shakllanish xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek xalq ertagi “Zumrad va Qimmat” hamda G‘arb adabiyotining mashhur namunasi “Sinderella” (Zolushka) ertaklari tanlab olingan.*

***Kalit so‘zlar:** ijobiy qahramon obrazi, bolalar adabiyoti, xalq ertaklari, qiyosiy tahlil, qahramon tipologiyasi, milliy mentalitet, tarbiyaviy konsepsiya, madaniy qadriyatlar, “Zumrad va Qimmat”, “Cinderella”, qiyosiy adabiyotshunoslik, axloqiy tarbiya.*

***Annotation.** This article presents a comparative analysis of the positive hero model in Uzbek and Western children’s literature based on the fairy tales “Zumrad and Qimmat” and “Cinderella”. Although these works share similar plot structures, they differ in terms of character typology, educational concepts, and cultural mentality.*

***Keywords:** positive hero, children’s literature, fairy tale, comparative analysis, character typology, cultural values, national mentality, educational function, Zumrad and Qimmat, Cinderella.*

***Аннотация.** В данной статье представлен сравнительный анализ модели положительного героя в узбекской и западной детской литературе на примере сказок «Зумрад и Киммат» и «Золушка». Несмотря на сходство сюжетной структуры, данные произведения отличаются по типологии персонажей, воспитательной концепции и культурному менталитету.*

***Ключевые слова:** положительный герой, детская литература, сказка, сравнительный анализ, типология персонажей, культурные ценности, национальный менталитет, воспитательная функция, Зумрад и Киммат, Золушка*

Kirish. Bolalar adabiyoti yosh avlodning axloqiy, ma’naviy va estetik tarbiyasida muhim rol o‘ynab kelmoqda. Shu jumlada, xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish ertak janriga qadimdan bolalar ongiga ta’sir etuvchi samarali va qiziqarli vosita sifatida qarab kelinadi. Ertaklar har bir xalqlning madaniy merosi sifatida axloqiy qadriyatlarni yosh avlodga singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijobiy qahramon obrazi esa ushbu jarayonning markazida turadi. Turli xalqlar ertaklarida voqealar rivoji o‘xshash bo‘lsa-da, undagi qahramonning xarakteri, harakat motivlari va mukofotlanish tamoyillari milliy mentalitet bilan chambarchas bog‘liq holda ro‘y beradi. Ushbu maqola o‘zbek va G‘arb ertaklaridagi ijobiy qahramonlar obrazini va ertak yakunida rag‘batlantirish usullarini qiyosiy tahlil qiladi va ularning madaniy kontekst bilan bog‘liqligini o‘rganadi.

Tadqiqot obyekti: “Zumrad va Qimmat” va “Sinderella” ertaklari

Tadqiqot predmeti: Ijobiy qahramon obrazining xarakteri, fazilatlari va mukofotlanish mexanizmi

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalaniladi:

1. Qiyosiy tahlil metodi: ikki ertakdagi ijobiy obrazlarning xarakter va mukofotlanish mexanizmi, ulardagi o‘xshashlik hamda tafovutlar ko‘rib chiqish orqali solishtirish

2. Adabiyotshunoslik metodi: har ikki xalqning ertaklari va ularning tuzilish xususiyatlarini o‘rganish

Turli millatlardagi ijobiy qahramonlarning harakterini tahlil qilish uchuntadqiqot materiali sifatida ikki ertak tanlandi: o‘zbek xalq ertagi “Zumrad va Qimmat” va G‘arbning mashhur “Cinderella” ertagi. Har ikki ertak chuqur tahlildan o‘tkazilib, yuqoridagi metodlar yordamida tadqiqot ishlari olib borildi.

Natijalar. Qiyosiy tahlil. Syujet va mazmun jihatdan farqlar:

Avvalo, syujet va mazmun jihatdan mazkur ertaklar orasida sezilarli tafovutlar mavjud “Zumrad va Qimmat” ertagida asosiy konflikt yaxshi va yomon opa-singillar hamda o‘gay ona o‘rtasida qurilgan bo‘lsa, “SINDRELLA” ertagida esa ziddiyatlar o‘gay ona va qiz o‘rtasidagi ijtimoiy va oilaviy zulm shaklida namoyon bo‘ladi. O‘zbek ertagida syujet rivoji qahramonning sinovlardan sabr-toqat va axloqiy poklik orqali o‘tishi bilan yakunlanadi, ya’ni natijada axloqiy adolat qaror topadi. G‘arb ertagida esa voqealar rivoji ko‘proq mo‘jizaviy yordam va tashqi omillar bilan bog‘liq bo‘lib, yakun romantik baxt - ya’ni ijtimoiy mavqening oshishi orqali ifodalanadi

Qahramon obrazi jihatidan farqlar:

“Zumrad va Qimmat” ertagining ijobiy qahramoni Zumrad sabr-toqatli, mehnatsevar va oilaviy qadriyatlarga sodiq obraz sifatida tasvirlanadi. U faol harakat qiluvchi qahramon bo‘lmasada, o‘zining ichki fazilatlari orqali barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tadi. Unda xalqona axloqiy me’yorlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Uning xarakterida kattalarga hurmat, oilaviy qadriyatlarga sodiqlik va halollik kabi fazilatlar aks etadi, bu esa o‘zbek xalqining an’anaviy axloqiy qarashlarini ifodalaydi. Ijobiy qahramonni rag‘batlantirish uning mehnati va axloqiy fazilatlari bilan bog‘lanadi. Sindrella sabrli bo‘lish bilan bir qatorda, orzumand qiz sifatida gavdalantirilgan. Ammo u ko‘pincha passiv holatda tasvirlanadi va o‘z maqsadiga erishishda esa tashqi yordamga tayanadi, “Cinderella” ertagida qahramon obrazi individual baxt sari yo‘naltirilgan bo‘lib, sehrli yordam va shaxsiy imkoniyatlar orqali muvaffaqiyatga erishish modeli namoyon bo‘ladi. Biroq uning muvaffaqiyati individual imkoniyatlar va sehrli yordam bilan bog‘liq holda tasvirlanadi, bu esa G‘arb ertaklariga xos individualizm elementlarini aks ettiradi.

Mazkur farqlarni chuqurroq o‘rganish uchun adabiyotshunoslik metodlariga murojaat qilish darkor. Struktural tahlil nuqtai nazaridan Vladimir Propp nazariyasiga ko‘ra ertaklar ma’lum funksiyalar asosida quriladi. Har ikki ertakda ham qahramonning sinovdan o‘tishi va mukofotga erishishi kuzatiladi, biroq “Zumrad va Qimmat”da bu sinovlar qahramonning ichki fazilatlari orqali hal etilsa, “SINDRELLA”da tashqi yordam hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi.

Psixologik yondashuvda Bruno Bettelheim fikrlariga ko‘ra ertaklar bolalarning ichki kechinmalari va ehtiyojlarini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Zumrad obrazi bolada sabr-toqat, itoatkorlik va ichki mustahkamlikni shakllantirsa, SINDRELLA obrazi orzu qilish, najot kutish va yaxshilikka ishonish kabi psixologik ehtiyojlarni o‘rgatadi.

Muhokama. Tadqiqot davomida qilingan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har ikkala ertakda ham ijobiy va salbiy qahramon qarama-qarshiligi asosiy syujet mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Ijobiy qahramonlardagi o‘xshashliklar:

- Ikkala qahramon ham sabr-toqatli va ezgu fazilatlarga ega
- Ijobiy fazilatlar mukofotlanishiga olib keladi

Farqlar:

- “Zumrad va Qimmat” ertagida mukofot milliy qadriyatlar bilan bog‘liq
- “Cinderella” ertagida mukofot individual imkoniyat va sehriga tayangan

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy qahramon obrazining shakllanishi milliy madaniyat va qadriyatlarga uzviy bog‘liq. Bu esa bolalar adabiyotining tarbiyaviy va madaniy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.


Xulosa. O‘zbek va g‘arb ertaklaridagi ijobiy qahramonlar obrazi umumiy axloqiy fazilatlar asosida shakllansa-da, ularning tasviri va mukofotlanish modeli milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarga bog‘liq. Ertaklardagi ba’zi mavzular haqiqatga to‘g‘ri kelmasligi mumkin bo‘lsada, umumiy ta’sir ijobiy bo‘lib bolalar rivojlanishi uchun muhim elementlarga hissa qo‘shadi. O‘zbek ertaklarida ijobiy qahramon axloqiy mukammallik timsoli sifatida namoyon bo‘lsa, G‘arb ertaklarida u shaxsiy baxt va ijtimoiy muvaffaqiyat sari intiluvchi obraz sifatida ifodalanadi. Qaysi millat, qanday usulda bo‘lmasin yaxshilik va kamtarlik mukofotsiz qolmaydi. Shu bilan birga, bolalar adabiyoti o‘zib borayotgan yosh avlodning axloqiy va estetik tarbiyasida doim muhim vosita bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek xalq ertaklari. – T.: O‘zbekiston, 2015.
2. To‘xtaboyev X. Zumrad va Qimmat. – T.: Sharq, 2008.
3. Grimm J, Grimm W. Cinderella and Other Fairy Tales. – London.: Penguin Classics, 2010.
4. Andersen H. C. The Fairy Tales. – New York: Dover Publications, 2004.
5. Zokirov M. O‘zbek bolalar adabiyoti tarixi. – T.: Fan, 2012.

**“XXI ASRDA TARIXIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK
VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR”
XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

6. Propp V. Morphology of the Folktale. – Austin: University of Texas Press, 1968.
7. Bettelheim B. The Uses of Enchantment: The Meaning and Importance of Fairy Tales. – T.: Vintage books, 1976.
8. Tursunov A. Qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi. – T.: Akademiya, 2018.
9. Lüthi M. The European Folktale: Form and Nature. – Bloomington: Indiana University Press, 1982.



**UNIVERSITY
OF BUSINESS
AND SCIENCE**